



UDK:37.013.42:001.895

Nurbek UMIDULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tadqiqotchisi
E-mail: Umidullayevnurbek@gmail.com

Buxoro davlat texnika universiteti professori, p.f.d Z.To'xtayeva taqrizi asosida

THE SOCIO-EDUCATIONAL FUNCTIONS OF YOUTH PEDAGOGY AND INNOVATIVE APPROACHES IN MODERN SOCIETY

Annotation

This scientific research provides an in-depth analysis of the socio-educational functions of youth pedagogy in the context of modern society, revealing its essence, content, and significance in the education and upbringing system. The study explores the pedagogical foundations of working with youth under the influence of global information flow, cultural identity challenges, and spiritual crises. In particular, the research investigates methods of fostering civic engagement, national self-awareness, and social responsibility among youth through innovative educational technologies, interactive methods, and learner-centered approaches. Furthermore, it highlights the issues faced by young people, the processes of their social integration, and the importance of collaboration among community institutions (mahalla), families, and educational organizations based on modern pedagogical concepts.

Key words: Youth pedagogy, socio-educational process, innovative approach, learner-centered education, national values, spiritual maturity, civic stance, modern technologies, socialization, subjects of upbringing, family and community cooperation.

СОЦИАЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИКИ МОЛОДЕЖИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.

Аннотация

В настоящем научном исследовании глубоко проанализированы социально-воспитательные задачи педагогики молодежи в условиях современного общества, их содержание и роль в системе образования и воспитания. В работе раскрыты педагогические основы работы с молодежью в условиях глобального информационного потока, культурной идентичности и духовных кризисов. В частности, освещаются пути развития гражданской позиции, национальной идентичности и социальной ответственности у молодежи с использованием инновационных образовательных технологий, интерактивных методов и личностно-ориентированного подхода. Также в исследовании освещаются проблемы молодежи, процессы их социализации, сотрудничество махалли, семьи и образовательных учреждений в воспитательной деятельности на основе современных педагогических концепций.

Ключевые слова: Педагогика молодежи, социально-воспитательный процесс, инновационный подход, личностно-ориентированное обучение, национальные ценности, духовное совершенствование, гражданская позиция, современные технологии, социализация, субъекты воспитания, сотрудничество семьи и махалли.

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR PEDAGOGIKASINING IJTIMOIIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda hozirgi jamiyat sharoitida yoshlar pedagogikasining ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalari, ularning mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati keng qamrovli tahlil qilingan. Tadqiqotda global axborot oqimi, madaniy identitet, ma'naviy inqirozlar sharoitida yoshlar bilan ishlashning pedagogik asoslari ochib berilgan. Jumladan, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interaktiv metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida yoshlarda fuqarolik pozitsiyasini, milliy o'zlikni, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish yo'llari o'rganiladi. Bunda yoshlar bilan bog'liq dolzarb masalalar, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish jarayoni, tarbiyaviy ishda mahalla, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar asosida olib borilgan tahlillar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar pedagogikasi, ijtimoiy-tarbiyaviy faoliyat, innovatsion metodlar, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish, milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya, ma'naviy yetuklik, fuqarolik ongini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, tarbiya ishtirokchilari hamkorligi, oila va mahalla o'rtasidagi uzviy aloqalar.

Kirish. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot jarayonlari inson hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yasamoqda. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalasi faqat pedagogik emas, balki ijtimoiy, madaniy hamda mafkuraviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun zamonaviy jamiyat sharoitida yoshlar pedagogikasiga yangicha yondashuv, innovatsion yechimlar va ijtimoiy-tarbiyaviy mexanizmlarni rivojlantirish zarurati yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ilgari surgan "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" g'oyasi yoshlarning

ma'naviy va axloqiy kamolotini ta'minlash, ularni milliy g'urur hamda fuqarolik mas'uliyatiga ega yetuk shaxslar sifatida tarbiyalash siyosatini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv yoshlar pedagogikasini yangi mazmunda tadqiq etish va uni ilmiy asosda rivojlantirishni dolzarb vazifa sifatida belgilaydi[1]. Mazkur tadqiqot nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy pedagogik tafakkur rivojiga o'z hissasini qo'shadi hamda yoshlar tarbiyasini ilmiy asoslangan va tizimli yo'nalishda rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi jamiyat sharoitida yoshlar pedagogikasi yo'nalishida olib borilgan

ilmiy tadqiqotlar bugungi ijtimoiy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishda muhim nazariy poydevor vazifasini bajarmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan uchinchi Renessans g'oyasi yoshlar tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqishga da'vat etmoqda [2]. Bu borada zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, jumladan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuvlar nazariy jihatdan bir necha manbalarda atroflicha yoritilgan.

Masalan, V.A. Slastenin, I.F. Isayev kabi olimlarning ishlari tarbiyaning ijtimoiy mexanizmlari, yoshlar ijtimoiylashuvi va tarbiya subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy pedagogik tafakkurda Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlarning asarlarida yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning tarixiy tajribalari zamonaviy nuqtai nazardan qayta tahlil qilinmoqda [3].

So'nggi yillarda e'tiborga loyiq jihatlardan biri – bu yoshlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalarning o'rni, innovatsion metodikalar orqali tarbiya samaradorligini oshirishga doir tadqiqotlar sonining ortib borayotganidir. Xususan, xalqaro miqyosda G. Vaillant, R. Inglehart va A. Bandura tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy ong va motivatsiya masalalari pedagogik nuqtai nazardan chuqur yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda zamonaviy jamiyatda yoshlar pedagogikasining ijtimoiy-tarbiyaviy vazifalari va innovatsion yondashuvlarini o'rganishda kompleks ilmiy metodologiyadan foydalanildi. Dastlab, mavzuga oid nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik konsepsiyalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarni kontent tahlil asosida o'rganildi. Bu bosqichda yoshlar muammolariga doir ijtimoiy-psixologik va pedagogik omillar tahlili amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida induktiv va deduktiv tahlil usullari, shuningdek, tizimli yondashuv va empirik ma'lumotlarni umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida tarbiyaviy jarayonlarning samaradorligini baholash uchun so'rovnoma, suhbat, kuzatuv, diagnostik testlar va pedagogik eksperiment kabi amaliy metodlar joriy etildi [4].

Yoshlar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda kommunikativ va ijtimoiy integratsiyani qo'llab-quvvatlovchi metodlar asosida samarali mexanizmlar ishlab chiqildi. Ushbu metodologik yondashuv orqali yosh avlod tarbiyasida zamonaviy muammolarning ildizi ochib berildi va ularni hal etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasi ko'p omilli, murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, u nafaqat ta'lim tizimi, balki oila, mahalla va jamiyat institutlarining hamkorlikdagi faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, yoshlar pedagogikasida faqat an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolish kutilgan natijalarni bermaydi, aksincha, innovatsion yondashuvlar orqali tarbiya sifati va samaradorligini oshirish mumkinligi tasdiqlandi.

Empirik tadqiqotlar asosida yoshlarda fuqarolik ongini, ijtimoiy mas'uliyatini, milliy o'zligini shakllantirishda interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijobiy samara bergani kuzatildi. Respondentlar ishtirokida o'tkazilgan so'rov va suhbatlar asosida tarbiyaviy ishlarning individual yondashuvga asoslanmagani holatida yoshlarning motivatsiyasi va ishtiroki pasayishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonda yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olgan

holda maqsadli faoliyat yo'lga qo'yilganda, ularning ijtimoiy faolligi, hayotiy pozitsiyasi va kasbiy rivojlanishga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada ortadi. Shu asosda yoshlar bilan ishlashda differensial va integrativ yondashuvlar kombinatsiyasini qo'llash zarurligi ilmiy asoslab berildi [5].

Hozirgi zamon sharoitida yoshlar pedagogikasining ahamiyati sezilarli darajada ortmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar rivoji va axborot oqimining kuchayishi fonida yosh avlod tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu jarayon faqat bilim berish bilangina cheklanmay, balki yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan, fuqarolik ongiga ega va ma'naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishni ham qamrab oladi. Milliy qadriyatlar asosida qurilgan tarbiya tizimi yoshlar pedagogikasining ijtimoiy poydevorini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, uni zamonaviy psixologik hamda sotsiologik yondashuvlar bilan boyitish lozim, chunki shaxsni chuqur anglash va uni jamiyat hayotiga moslashtirish katta ahamiyatga ega [6]. Mahalla, oila va ta'lim muassasalarining uzviy hamkorligi yoshlar tarbiyasida samarali natijalar beradigan muhim omillardan biridir. Zamonaviy pedagogik usullar yoshlar orasida fuqarolik faolligini rivojlantirish, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash va ijtimoiy ongni yuksaltirish uchun keng imkoniyatlar beradi [7].

Zamonaviy jamiyatning murakkab muammolarini anglash va unga moslashish yoshlar pedagogikasining dolzarb vazifasi bo'lib, bunda zamonaviy ta'lim modellari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning ijtimoiylashuvi, ularning atrof-muhit bilan uyg'unlashuvi, jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlash zamonaviy pedagogikaning ustuvor maqsadlaridandir. Yoshlar bilan ishlashda empatiya, eshitish madaniyati va psixologik moslashuv yondashuvlari orqali ularning ichki dunyosiga kirib borish imkoniyati yaratiladi [8]. Pedagogik faoliyatda yoshlarning shaxsiy qadr-qimmatini anglash, ularning orzulari va intilishlarini qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Yoshlar orasida ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, ularning sabablarini anglash va konstruktiv yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan trening va muhokama darslari samarali metodlardan hisoblanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv — yoshlarni markazga qo'ygan, ularning ehtiyoj va qiziqishlariga mos ta'limni shakllantirishga xizmat qiladi [9].

Pedagogik jarayon davomida yoshlarga qarshi emas, ular bilan birga ishlash tamoyili dolzarb metodik yondashuv sifatida qaralmoqda. Yoshlar bilan ishlashda didaktik o'yinlar, interfaol mashg'ulotlar, loyiha asosidagi ta'lim shakllari orqali ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirish mumkin. Pedagogik jarayonda yoshlar bilan to'g'ridan-to'g'ri va samimiy muloqot qilish orqali ishonch muhitini yaratish pedagogik natijadorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy, huquqiy va ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllangan yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Yoshlar pedagogikasida demokratik va gumanistik tamoyillar ustuvorlik qilishi, yoshlarning shaxsiy huquqlari, erkinliklari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya tashkil etilishi zarur. Har bir yoshning ichki dunyosini anglash va unga individual tarzda yondashish pedagogikaning nozik, ammo muhim jihatlaridandir [10]. Ta'lim muassasalari, mahalla, ijtimoiy tashkilotlar va OAV bilan hamkorlikda yoshlar pedagogikasini amalga oshirish orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin.

Xulosa va takliflar. Yoshlar ta'limi bo'yicha zamonaviy pedagogik konsepsiyalarni tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, hozirgi davrda yosh avlod tarbiyasi jamiyat rivojida strategik o'rin tutadi. O'rganishlar ko'rsatdiki, yoshlar pedagogikasining asosiy maqsadi – ularni ongli, Vatanga sodiq, mas'uliyatni his qiladigan va mustaqil fikr yuritadigan

shaxslar sifatida shakllantirishdir. Bunga erishish uchun ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, shaxsga yo'naltirilgan, qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar zarurligi isbotlandi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar malakasini oshirish jarayoniga ilg'or pedagogik yondashuvlar, shaxslararo muloqot va psixologik moslashuvga oid treninglar, hamda kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashga yo'naltirilgan maxsus modullarni kiritish.

Mahalla, oila va ta'lim tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish orqali yoshlarning jamiyatga moslashuvi va fuqarolik burchini anglash darajasini oshirish.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish orqali yoshlarning tafakkuri va qiziqishlariga mos innovatsion yondashuvlarni kuchaytirish;

Yoshlar bilan individual ishlash tamoyillarini kuchaytirish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanish darajasiga mos tarbiyaviy metodlarni ishlab chiqish;

Ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va zamonaviy ilm-fan yutuqlarini uyg'unlashtirib kiritish, shuningdek, yoshlar orasida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi dasturlarni kengaytirish.

Mazkur takliflar zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda yoshlar tarbiyasini yuksaltirish, ularning hayotga bo'lgan qat'iy qarashlarini shakllantirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirishga xizmat etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.–Toshkent: O'zbekiston, 2024.–555 b.
2. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni 2020 yil 23 sentyabr // Xalq so.,zi. –2020.–24 sent.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – T.: O'zbekiston, 2023. – B. 111.
4. Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчи ва мураббийлар – Янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. Халқ сўзи. 2020 йил 1 октябрь, № 207 (7709). - Б.4.
5. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998. –Б. 215.
6. Roy, Olivier, The New Central Asia: The Creation of Nations. New York, 2000. –P.198.
7. Andy Landis.Social Security: The Inside Story, 2018 Silver Anniversary Edition Paperback. January 10, 2018. – 308 p.
8. Mr. Mark J. Orr CFPSocial Security Income Planning: The Baby Boomer's 2021 Guide to Maximize Your Retirement Benefits Paperback. October 2, 2013. – 129 p.
9. Jurakulovich, S. J. (2023). Philosophical Views of Sages on Human Values and Glorifying Him. Theory and analytical aspects of recent research, 2(16), 229-238.
10. Ishmuhamedov J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari” T.: TDPU, 2004-yil.